

O‘SMIRLIK DAVRIDAGI SUITSIDNING KELIB CHIQUISH SABABLARI

¹Шакарбоева Шахноза Абдулакимова, психол.ф.ф.д.(PhD)

²Urisheva Mohira Ibrohim qizi, 2- bosqich magistrant

Jizzax davlat pedagogika instituti

shahnozashakarboyeva@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘smirlik davridagi suitsidning kelib chiqish sabablari, o‘smirlik davridagi psixologik va fiziologik o‘ziga xosliklar va bu davrdagi suitsidal xulq-atvorning kelib chiqishiga turtki bo‘luvchi asosiy omillar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: O‘smirlik davri, yosh inqirozi, suitsid, agressiya, stress, konflikt, intellekt, xulq og‘ishishi, ijtimoiylashish.

Аннотация: В данной статье описаны причины суицида в подростковом возрасте, психологические и физиологические особенности подросткового возраста, а также основные факторы, мотивирующие суицидального поведения в этот период.

Ключевые слова: подростковый возраст, возрастной кризис, суицид, агрессия, стресс, конфликт, интеллект, девиантное поведение, социализация.

Annotation: This article describes the causes of suicide in adolescence, the psychological and physiological characteristics of adolescence, as well as the main factors motivating suicidal behavior during this period.

Key words: adolescence, age crisis, suicide, aggression, stress, conflict, intelligence, deviant behavior, socialization.

Mustaqil O‘zbekistonimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning obro e‘tibori, yurtimizning bundanda rivojlanishi, avvalo bolalarimizning unib o‘tib, ulg‘ayib komil inson bo‘lib hayotga kirib borishiga, xalqimizning mushkulini oson qilib el–u yurtimizga xizmat qiladigan inson bo‘lishiga bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovich raisligida 2018 yil 27 iyul kuni o‘tkazilgan jinoyatchilikning oldini olish, davlat idoralari va jamiyatning bu boradagi ma’suliyatini oshirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida suitsidning oldini olish bo‘yicha butunlay yangi tizim tashkil etish vazifasi qo‘yildi.¹ **Suitsid** – ingliz tilida suicide o‘z o‘zini o‘ldirish-ongli tarzda insonning hayotda olgan o‘tkir ruhiy jarayonlari natijasida o‘z hayoti haqidagi o‘y hayollarining yo‘qolishidir.

Yosh davrlarining ichida eng murakkab davr o‘smirlik davri hisoblanadi. O‘smirlar muvozanatli, hayotni idrok etuvchi, atrofdagi voqea hodisalarga tez ishonuvchan, tashqi qiyofasiga e‘tiborsiz bo‘lganligi bois bu oltin davr hisoblanadi. Hozirgi kunda bu davrda yosh inqirozlari, ijtimoiy salbiy omillar sababli suitsid holatlari yuz bermoqda. I.A.Sikorskiy ilmiy tadqiqotlarida o‘z

¹ Maktab o‘quvchilari orasida suitsid, huquqbuzarlik va jinoyatchilikholatlarini oldini olishda amalga oshiiriladigan kompleks profilaktik tadbirlar yuzasidan amaliyotchi psixologlar va pedagog hodimlar uchun. Metodik qo‘llanma Namangan-2019. 13-bet

davrida bolalar va o'smirlar o'z joniga qasd qilish holatlarini tadqiq qilish va ularning oldini olishga muhim hissa qo'shadi.² Tadqiqotchi o'smirlar suitsidini psixiatrik tomonidan tahlil qilib, o'smirlar o'z joniga qasd qilish holatlari ham kattalar suitsidi kabi psixologik nosog'lomlik ko'rinishlaridan hisoblanadi deb ta'kidlab o'tgan.

O'smirlar o'z joniga qasd qilish sabablarini psixologik jihatdan o'rganishga qaratilgan yirik asarlardan A.I.Astrogorskiyning 1893 yilda yozilgan "Samoubiystvo kak psixologicheskaya problema" nomli monografiyasi o'smirlardagi suitsid holatlarining psixologik xususiyatlari to'g'risida fikr yuritilgan. Professor A.G.A suitsidologiya markazi xodimlari yoshi kattalar suitsidini o'rganish bilan bir qatorda o'smirlardagi suitsidni ham tahlil qilganlar. O'smirlar suitsidini o'rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar bilan tanishar ekanmiz, tadqiqotlarda bolalar va o'smirlar suitsidal xulqning shakllanishi, rivojlanib borishi to'g'risida fikr yuritilgan. Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki bolalar va o'smirlar suitsidal xulqini ifodalovchi quyidagi xususiyatlarni keltirib o'tiladi. Xulq atvor o'zgarishining turli xil ko'rinishlari hamda suitsidal xulq atvorning paydo bo'lishi ga quyidagi omillar sabab bo'ladi:

-O'z-o'zini past baholash;

-emotsional beqarorlik;

-impulsivlik;

-agressiya;

-stress;

-atrofdagilar bilan munosabatning yaxshi emasligi sabab bo'ladi. Maqbul bo'lmagan vaziyatlar va kechinmalarga nisbatan bo'lgan shikoyatlar sabab bo'lishi mumkin. Ayrim tadqiqotlar affektiv holatlar bolalar va o'smirlarda suitsidal xulq atvorning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Hozirgi kunda yoshlarga ta'lim tarbiya berish jarayonida biz ota-ona va o'qituvchilar hamkorlikda ishlab ularning orzu umidlari ro'yobga chiqishi uchun barcha shart sharoitlarni yaratib berishimiz lozim. Yoshlar bizning kelajagimizdir. Yoshlarga berilgan e'tibor kelajakga berilgan e'tibordir. Barchamizga ma'lumki psixologlar insonni yosh davrlarga bo'lib o'rganishgan va har bir yosh davri o'zining psixologik – fiziologik xususiyatlari bilan bir biridan farq qiladi. O'smirlik davri 11 yoshdan 15, 16 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. O'smirlik davri bolalarda turli xil yoshlarda va qizlarda ertaroq yigitlarda kechroq boshlanishi mumkin.

O'smirlik davridagi qiyinchiliklar, o'zgarishlar bolada ichki ziddiyatlarni keltirib chiqarishi bilan hamda atrofdagilar bilan konfliktli vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. O'smir balog'at yoshiga qadam qo'yar ekan, unda paydo bo'layotgan turli xil qiyinchiliklarni juda katta yechib bo'lmaydigan muammo sifatida tushunadi. Bu muammolar faqatgina o'zidagina bo'layotgan tuyuladi. Buning natijasida esa turli xil tushunmovchiliklar va noxush holatlar kelib chiqishi mumkin. Bu davrda o'smirlar ichki dunyosidagi yashirin tuyg'ulari, psixik

² L. Olimov, A. Nazarov Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi. – Toshkent " Tafakkur avlodi"-2020. 197 - bet

holatlari to'g'risida atrofdagilar, oilasi, ustozlari, do'stlari bilan hamfikir bo'lishini xoxlashmaydilar. Boshqa yosh davrlariga nisbatan o'smirlar bo'layotgan voqealarni kuchli hissiyot nafrat va tasirchanlik bilan qabul qiladi. Turli xil noxush holatlarning oldini olish o'smirlarda yuz berayotgan nizolarni bartaraf etish uchun oila-maktab-mahalla hamkorligini yo'lga qo'ygan holda o'smirlar bilan ishlash zarur. Yosh davrlarining o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, har bir yosh davri o'zining psixologik jixatlari bilan bir biridan farq qiladi. Shu kungacha psixologiya ilmida shaxs taraqqiyotini davrlarga bo'lib o'rganishga juda katta e'tibor qaratilgan. Bir qancha davriy sxemalar ham taklif qilingan. Lekin bu sohada astoyidil ijod qilgan har qanday olim o'zining tadqiqot ishlarini taklif etgan. Insonning hayot yo'li va uning asosiy lahzalari tarixiy taraqqiyot mobaynida o'zgaradi, bir avloddan ikkinchi avlod taraqqiyotiga o'tishning o'zi ham qator o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Davrlarga bo'lingan klassifikatsiyalarning o'zi ham ikki turga bo'linadi.

Birinchi tur: Juz'iy ya'ni alohida davrlarni yana qo'shimcha davrlarga bo'lish-davrlar ichidagi davrlar.

Ikkinchi tur: Umumiy ya'ni inson umrining barcha bosqichlarini o'z ichiga olgan. Juz'iy klassifikatsiyaga misol qilib J.Piajening intellektning rivojlanishini bosqichlarga bo'lishini kiritishimiz mumkin. J.Piaje taraqqiyotni uch bosqichda tasavvur qilgan:

1. Sensomotor intellekt bosqichi: Tug'ilgandan ikki yoshgacha bo'lgan davr. Bu davrda asosan olti bosqich farqlanadi.
2. Konkret operatsiyalarni bajarishga tayyorlash va uni tashkil etish bosqichi. Uch yoshdan o'n bir yoshgacha bo'lgan davr.
3. Formal operatsiyalar bosqichi. Bu davrda bola nafaqat bevosita ko'rib turgan narsasi, balki mavxum tushunchalar va so'zlar vositasida ham fikr yuritadi. O'n ikki yoshdan o'n besh yoshgacha bo'lgan davr.

O'smirlik yoshi eng murakkab va muhim taraqqiyot bosqichiga yetaklaydigan davrdir. Ilk balog'at davri 11- 13 yoshni , katta balog'at davri 14-15 yoshlarni o'z ichiga oladi. O'smir bola emas shu bilan birga u katta ham emas degan gap bekorga aytilmagan. Yosh davrlar ichida eng murakkab davr bu o'smirlik davridir. Bu davrning eng muhim jixati shundan iboratki, o'smirlik bolalikdan o'spirinlik, kattalikka, yoshlikdan yetuklikka o'tish davridir. O'smirlik davri organizm rivojidagi tez va notekislik bilan xarakterlanib, bu yoshda o'smir tananing intensive tarzda rivojlanishi va suyaklarning qotishi ro'y beradi. Qon tomirlari va yurakda ham o'zgarishlar bo'lib, bu ham o'smir xarakteridagi o'zgaruvchanlik, tushunmovchiliklar, kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Balog'at davridagi bunday o'zgarishlar asab tizimiga ham o'z tasirini ko'rsatadi. Buning natijasida bolada tez achchiqlanish, asabiylik, qo'rslik kabi salbiy o'zgarishlar paydo bo'ladi. O'smir tez asabiylashganida yoki tormozlanish yuz berganda anchagacha stress, depressiya holatidan chiqolmaydigan tushkunlikda qolishi mumkin. O'smirning jismoniy rivojlanishini belgilovchi eng muhim omil jinsiy rivojlanish bo'lib, jinsiy balog'at ruhiy va ichki organlar faoliyatini ham belgilab beradi. O'smirlik davrida bola ko'proq o'z o'y fikrlari bilan band bo'ladi. Bu davrda diqqat, xotira, tafakkur jarayonlari rivojlanadi. O'smirlik yoshida shaxsning

takomillashuvi hamda shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillardan biri ta'lim faoliyati motivlaridagi sifat o'zgarishidir. Kichik maktab yoshidagi boladan farqli ravishda o'smir faqatgina bilimlar tizimiga ega bo'lish, kattalarning ya'ni ota onasining o'qituvchisining maqtoqlarini eshitish va baholarini ko'paytirish uchun emas, balki tengdoshlari atrofdegilar orasida ijobiy mavqeyni egallash, kelajakda ideal inson bo'lish uchun harakat qiladi.

I.I.Dubrovinaning fikriga ko'ra ta'lim faoliyati motivlari ichida bilish, yangi ilmlarga ega bo'lish motivi kuchsiz bo'lgani tufayli, o'smir maktabga borgisi kelmaydi. Bunday holatlar o'smirlarning 20% i da uchraydi. O'smirning shaxs sifatida shakllanishida ikki holat kuzatiladi. Birinchi xolatda o'smir tengdoshlari atrofdegilar bilan yaqin aloqada bo'lishga intiladi. Ikkinchi xolatda o'smirning mustaqilligi yuqoriligi hisobiga bola ichki ruhiy olamida ayrim qiyinchiliklar kuzatilishi mumkin. Bu davrda o'z-o'zini anglash va o'zgalarni anglash o'rtasida qarama qarshiliklar paydo bo'ladi. Balog'at yoshida bola o'z imkoniyatlarini yuqori baholaydi. Bu imkoniyatlar atrofdegilar tomonidan maqullanmasa yoki to'g'ri qabul qilinmasa, o'smir bunday holatga juda katta mudhish hodisadek qaraydi. Bunday xolatlarda o'smir tenqurlaridan ajralib qolishi, maktabga bormay qo'yishi va hattoki suitsidal harakatlar sodir etishi ham mumkin. O'smirlik yoshidagi bunday qiyinchiliklar kelib chiqmasligi yoki yuzaga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etishda eng samarali usul bu o'smirning biror narsaga uzluksiz qiziqishiga erishishdir. Hamda o'smirning vaqtini unumli o'tkazishdir. Bu davrda ota-ona va o'qituvchilardan o'smiringa katta e'tibor berish talab etiladi. Bolani qiziqqan sohasiga yo'naltirish juda katta samara beradi va natijalidir. Masalan shu davrda tikish bichishga yoki bo'lmasa texnikaga qiziqqan bolaning qiziqishini qondirish maqsadida bolaga shart sharoitlar yaratib berish, bekor qolmasligiga erishish, bolaning har bir ishini rag'batlantirish, unga kattalardek muomilada bo'lish juda katta psixologik va pedagogic ahamiyatga molikdir. O'smirning qiziqishlarini aniqlab, oldiga yangi maqsadlar qo'yish inson shaxsi shakllanishiga juda katta asosdir. Shundan keyin o'smirning "Men" i to'g'risidagi o'ylari, fikrlari ijobiy, o'ziga nisbatan bahosi ham adolatli bo'ladi. O'qituvchi bola bilan ishlaganda o'smirlik davri psixologiyasini yaxshi bilishi, psixologik nuqtayi nazardan ham pedagogic nuqtayi nazardan ham muhimdir.

O'smirlik davri asosan 11 yoshdan to 15 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. O'smir kichik maktab o'quvchilaridan farq qilgan holda eng birinchi ilmiy bilishda ishtirok etadi. O'smirlik davrida rivojlanishning ko'p qismi mehnat faoliyati orqali ta'sir ko'rsatadi. Bu davrda mehnat faoliyati o'smirning atrofdegilar bilan uyushqoqligini oshiradi. O'smirning shaxs sifatida tarkib topishida o'yin ham ahamiyatlidir. O'yin faoliyati bu davrda yuksak axloqiy tuyg'ularning, irodaviy xarakter xislatlarning o'sishiga yordam beradi. O'yin faoliyati o'smirni intizomli bo'lishga o'rgatadi. O'smirlik yoshida bolalarda javobgarlik va burch tuyg'ulari yetarli darajada rivojlangan bo'ladi. Bolalar o'zlari ongli ravishda ish yurita oladilar va shu davrda kattalar bolalarga bemalol ish topshirishga ishonadilar. O'smirni oilada maktabda kichkina deb hisoblamay undan ho'jalik ishlarida yordam berishini hamda bu ishlarga bemalol qurbi yetishlarini anglaydilar. O'smirlik davrida bolada bosh miya po'stining ostki

qismlari ustki kontrolligi ortib boradi va po'st va po'st ostidagi qismlari doimiy ravishda birga harakat qiladi. Bazi xolatlarda po'stloq osti qismining faoliyatini control qilmay qo'yadi. Bunday holat o'smirning asabiyligi, jizzakiligi va emotsional xislariga berilganligidan dalolat beradi. O'smirlik davrida bolaning nerv sistemasi o'sishi hali tugallanmagan bo'ladi va tarkib topish jarayonida bo'ladi. O'smirni ta'lim olishi, ish va sport mashg'ulotlari paytida to'g'ri va chuqur nafas olishga o'rgatish lozim. Bu o'smirning sog'ligi uchun juda foydali hisoblanadi. Balog'at davri inqiroz davri deb ham yuritiladi.

Oilaviy muhitda o'zaro munosabatlar ota-onalar, kattalarning kichiklar haqidagi g'amhorligi, mehribonligi, talabchanligi asoslangan bo'lsa, bunday farzandlar ijtimoiy hayot (munosabatlar) O'zini faol tutadi, atrofdagilarga nisbatan pozitiv ruhiyatda munosabat qiladigan bo'ladi. O'quvchi shaxsini individual psixologik xususiyatlarini har tomonlama mukammal tahlil qilish o'qitish va tarbiyalash samaradorligining muhim shartlaridan biridir. Tarbiyaning salbiy omillari va sharoitlari yoqimsiz tarzda umuman o'sib kelayotgan shaxsning, avvalo, uning butun ahloqiy irodaviy xususiyatlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Demak o'smirlik davridagi eng asosiy ehtiyojlardan biri bo'lgan qaramlikdan ozod bo'lish ehtiyojini tushunmaslik, o'smirning mustaqilligini cheklab qo'yish o'z-o'ziga bo'lgan ishonch hissining susyishiga olib keladi;

- o'smirlarda havotirlanish va qo'rquv jumladan sotsiofobiya o'z-o'ziga adekvat baho bera olmaslik va shaxsiy nizolar asosida yuzaga keladi;

- ota-onalar tomonidan bolaning faqat xato va kamchiliklariga urg'u berilishi, atrofdagilar tomonidan bolaning ko'p tanqid qilinishi keyinchalik o'ziga bo'lgan ishonchning susayishiga sabab bo'ladi;

- o'smirda muloqotchanlikning yetarli darajada rivojlanmaganligi ularda ijtimoiy moslasha olmaslik holatini yuzaga keltiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi;

- faoliyatdagi muvaffaqiyatsizlik va omadsizliklar o'smirda havotirlanish va tushkunlik, qo'rquv holatlarini yuzaga keltiradi;

- o'smirlardagi xulqi og'ishish holati o'z-o'zini anglashdagi nuqsonlar bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin;

- bu holat o'smirlarda o'z bilimidan shubha qilish, olayotgan bahosiga mos bilimga ega emaslik va buni o'qituvchi va boshqa o'quvchilar tomonidan fosh etilishidan qo'rqish hissini vujudga keltiradi.

Ushbu muammoni hal etish uchun o'z vaqtida psixoprofilaktik, rehabilitatsion va psixokorreksion ishlar olib borilmasa, bu kabi nuqsonlar o'smirlik davridan so'ng ham yanada avj olib, o'z fikrini erkin bayon eta olmaslik, o'ziga ishonchsizlik, o'z imkoniyatlari va qobilyatlarini to'liq namoyon eta olmaslik holatlarini vujudga keltiradi. Natijada o'smirda sekin asta havotirlik va hadiksirash tuyg'ulari kuchayib, turli psixik buzilishlarga, ya'ni suitsidal holatlarga sabab bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maktab o'quvchilari orasida suitsid, huquqbuzarlik va jinoyatchilikholatlarini oldini olishda amalga oshiiriladigan kompleks profilaktik tadbirlar yuzasidan

amaliyotchi psixologlar va pedagog hodimlar uchun. Metodik qo'llanma Namangan-2019. 13-bet

2. L. Olimov, A. Nazarov Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi. – Toshkent “ Tafakkur avlodi”-2020. 197 – bet

3. 1.Каршибаева Г.А. Характеристики мотивационных потребностей подростков с суицидальным поведением //EurasianUnionScientists.2020. Т. 1. №. 10 (79). С. 48-49.

4. Каршибаева Г. А., Юлдашева Г. Б. Конфликт как одно из значимых явлений психической жизни человека //Новости образования: исследование в XXI веке. 2022. Т. 1. №. 4. С. 459-464.

5. Қаршибоева Г.А. Ўсмирларнинг хулқ-атворидаги ўзгаришнинг ижтимоий психологик жихатлари //Журнал Педагогика и психологии в современном образовании. 2022. Т. 2. №. 4.

6. Қаршибоева Г.А. Ўқувчиларда касбий установкаларнинг шаклланишининг психологик жихатлари //Журнал Педагогика и психологии в современном образовании. 2022.Т. 2. №. 4.

7. Каршибоева Г. А. Эмоциональные аспекты при суицидальной поведении подростка //EDITOR COORDINATOR. 2021. С. 304.

8. Каршибаева Г. А. Факторы и причины суицида //Scientific Impulse. 2022. Т. 1. №. 2. С. 651-656.

9. Каршибоева Г. А. Психопрофилактические меры по предупреждению суицидного поведения у подростков: Каршибоева Гульноза Абдукодировна, Джизакский государственный педагогический институт-старший преподаватель //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал.2021.№. 2-Махсус сон. С. 298-305.

10. Каршибоева Г. А. Характеристики мотивационных потребностей подростков с суицидальным поведением//Евразийский Союз Ученых. – 2020. – №. 10-1 (79). – С. 48-49.

11. Каршибаева Г. А. Аспекты социально психологического исследования суицидального поведения подростков //Мир образования-образование в мире. – 2021. – №. 1. – С. 50-56.

12. Abduqodirovna G. Q., Burxonovich A. S., O'skanov son Abdurashid M. Negative Socio-Psychological Factors Influencing the Personality of a Teenager //International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. 2021. Т. 1. №. 7. С. 54-59.

13. Karshibayeva G. Диагностика суицидального поведения у подростков //Вестник интегративной психологии. 2021. №. 22.С. 84-89.

14. Karshibayeva, G Diagnosis of suicidal behavior in adolescents. International Journal for Innovative Engineering and Management Research. A Peer Reviewed Open Access International Journal.// Vol 10 Issue03, March 2021 501-505 p.

15. Karshibayeva, G. The importance of motivation to avoid failure in achieving the success of young football players. PSYCHOLOGY AND EDUCATION (2021) 58(2)

16. Karshibayeva, G. Innovations in Applied Sciences | SSN 2792-3983 (online), Published under Volume: 1 Issue: 7 in December-2021
17. Karshibayeva, G. Negative Socio-Psychological Factors Influencing the Personality of a Teenager. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences | SSN 2792-3983 (online), Published under Volume: 1 Issue: 7 in December-2021
18. Каршибаева Г. А. Ўсмирларда суицидал хулкнинг олдини олишда амалга оширила-диган психопрофилактик чора-тадбирлари. “Таълим ва инновацион тадқиқотлар” илмий услубий журнал, 2021 йил, махсус сон. 298-305 ст.
19. Каршибаева Г. А., Ибайдуллаева У. Р. Оила психологияси. Ўқув қўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент. 2022 й.
20. Каршибаева Г. А., Абдусулов Р. А. Психологик маслаҳат. Ўқув қўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент. 2022 й.
21. Каршибаева Г. А. Ўсмирларда суицидал хулкни пайдо бўлишида ижтимоий функциялар бузилишининг психологик ҳолатлари. *Psixologiya ilmiy jurnali/ Вухого*. №4, 2020 101-104 бб
22. Абдурасулов, Р. А., & Каршибоева, Г. А. Психологик тренинг асослари. Ўқув қўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент–2019 йил.